

«SILK CAPITAL» mas'uliyati
cheklangan jamiyati ishtrokchining
2022-yil 17-martdagi
2/2022-son qarori bilan



«SILK CAPITAL»

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI

USTAVI (yangi tahrirda)

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. «SILK CAPITAL» Mas'uliyati cheklangan jamiyati Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanining Yagona darcha Markazi tomonidan 2017 yil 12 aprelda 506945-son bilan ro'yxatga olingan «SILK CAPITAL» Aksiyadorlik jamiyati qaiyta tashkil etish natijasida tashkil etilgan va uning huquqiy vorisidir.

1.2. «SILK CAPITAL» Mas'uliyati cheklangan jamiyati (bundan buyon matnda «Jamiyat» deb yuritiladi) mazkur Ustavi O'zbekiston Respublikasining «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

1.3. Jamiyatning Ishtirokchilari:

— «Ummatech Invest» Mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi qo'shma korxonasi, Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek tumani, Mustaqillik ko'chasi, 59A-uy manzili bo'yicha joylashgan.

1.4. Jamiyatning to'liq firma nomi:

Davlat tilida: «SILK CAPITAL» Mas'uliyati cheklangan jamiyati;

Rustilida: Общество с ограниченной ответственностью «SILK CAPITAL»;

Ingliz tilida: «SILK CAPITAL» Limited liability company.

Jamiyatning qisqartirilgan firma nomi:

Davlat tilida: «SILK CAPITAL» MChJ;

Rus tilida: ООО «SILK CAPITAL»;

Ingliz tilida: «SILK CAPITAL» LLC.

1.5. Jamiyatning pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik ko'chasi, 59A-uy.

1.6. Jamiyat cheklanmagan muddatga tashkil etiladi.

II. JAMIYATNING YURIDIK MAQOMI

2.1. Jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga asosan yuridik shaxs hisoblanadi. Jamiyat belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi.

2.2. Jamiyat o'z faoliyatini mazkur ustav va O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq va ta'sis hujjatlariga asosan amalga oshiradi.

2.3. Jamiyat o'z majburiyatlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi. Jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

2.4. Jamiyat o'zining firma nomi yozilgan shtamp va blankalarga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatga olingan o'z emblemasiga, tovar belgisiga ega bo'lishga haqli.

2.5. Jamiyat o'z egaligida mustaqil balansda hisobga olinadigan alohida mol-mulkka ega, o'z nomidan huquqlar va majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

III. JAMIYATNING FILIALLARI VA VAKOLATXONALARI

3.1. Jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talablariga muvofiq vakolatxonalar va filiallar va boshqa alohida bo'linmalar tuzishga haqli.

IV. JAMIYATNI TASHKIL ETISHDAN MAQSAD VA FAOLIYAT TURLARI

4.1. Jamiyatni tashkil etishdan asosiy maqsad ishtirokchilar manfaatlari uchun foyda olish.

Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishi: Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat. Shu jumladan:

- Investiciya vositachisi faoliyati;
 - Investiciya maslaxatchisi faoliyati;
 - Investiciya aktivlarini ishonchli boshqaruvchisi faoliyati;
 - Transfer-agenti faoliyati;
 - Moliyaviy bozorlarni boshqarish;
 - Jamg'armalarni boshqarish;
 - Xolding kompaniyalari faoliyati;
 - Sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha boshqa yordamchi faoliyat;
 - Tijorat faoliyati va boshqaruv masalalari bo'yicha maslaxat berish;
- qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa har qanday faoliyat turlari.

4.2. Amalga oshirilishi uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) talab qilinadigan faoliyat tegishli ruxsatnoma (litsenziya) olingandan keyin amalga oshiriladi.

V. ISHTIROKCHILARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Jamiyat ishtirokchilari quyidagilarga haqlidirlar:

qonun hujjatlarida va jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyatning ishlarini boshqarishda ishtirok etish;

qonun hujjatlarida va jamiyat ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyatning faoliyati to'g'risida axborot olish hamda uning buxgalteriya daftarlari va boshqa hujjatlari bilan tanishish;

foydani taqsimlashda va uning tegishli qismini olishda ishtirok etish;

jamiyatning ustav fondidagi o'z ulushini yoxud uning bir qismini qonun hujjatlarida va jamiyatning ustavida nazarda tutilgan tartibda mazkur jamiyatning bir yoki bir necha ishtirokchisiga yoxud uchinchi shaxslarga sotish yoki o'zga tarzda ularning foydasiga voz kechish;

jamiyat boshqa ishtirokchilarining roziligidan qat'i nazar, qonun hujjatlarida va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda istalgan vaqtda jamiyat ishtirokchilari tarkibidan chiqish;

jamiyat tugatilgan taqdirda, kreditorlar bilan hisob-kitob qilinganidan keyin qolgan mulkning bir qismini yoki uning qiymatini olish;

jami ulushlari jamiyat ustav fondining kamida o'n foizini tashkil etadigan jamiyat ishtirokchilari o'z majburiyatlarini qo'pol buzayotgan yoxud o'z harakatlari yoki harakatsizligi bilan jamiyatning faoliyat ko'rsatishiga imkon bermayotgan yoki uni jiddiy tarzda qiyinlashtirayotgan ishtirokchini jamiyatdan sud tartibida chiqarilishini talab qilishga haqlidirlar;

jamiyat ishtirokchilari jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

5.2. Jamiyat ishtirokchilarining majburiyatlari:

qonun hujjatlarida va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan qoidalarga amal qilishlari;

qonun hujjatlarida va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda, miqdorda, usullarda va muddatlarda hissa qo'shishlari;

jamiyat faoliyati to'g'risidagi sir tutilgan axborotni oshkor qilmasliklari shart.

Jamiyat ishtirokchilariga jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

VI. JAMIYATNING MOL-MULKI VA MABLAG'LARI

6.1. Jamiyat mustaqil ravishda o'ziga tegishli mol-mulkdan foydalanadi.

6.2. Jamiyatning mol-mulki:

— ishtirokchilarning ulushlaridan;

— jamiyat faoliyati natijasida olingan foydadan;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalardan shakllantiriladi.

VII. JAMIYATNING USTAV FONDI

7.1. Jamiyatning tashkil etilishi va faoliyatini amalga oshirishi uchun ishtirokchilar **2 911 000 000. 00 (ikki milliard to'qqiz yuz o'n bir million)** so'm miqdorida ustav fondi shakllantirishadi.

7.2. Ishtirokchilarning ustav fondidagi ulushlari quyidagicha:

— « **Ummatech Invest** » Mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi qo'shma korxonasi — **2 911 000 000. 00 so'm, ya'ni 100.00%.**

7.3. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin bir yil mobaynida Ishtirokchilarning har biri ustav fondidagi ulushini to'liq kiritadi.

7.4. Pul, qimmatli qog'ozlar, o'zga ashyolar yoki mulkiy huquqlar yoxud pul bahosiga ega bo'lgan boshqa shaxsga o'tkaziladigan o'zga huquqlar jamiyatning ustav fondiga qo'shiladigan hissalar bo'lishi mumkin.

7.5. Jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi qaroriga asosan ustav fondini ko'paytirishi yoki kamaytirishi mumkin.

7.6. Jamiyatning ustav fondini ko'paytirishga u to'liq to'langanidan keyingina yo'l qo'yiladi. Jamiyat ustav fondining ko'paytirilishi jamiyatning mol-mulki hisobiga va (yoki) jamiyat ishtirokchilarining qo'shimcha hissalarini hisobiga, agar bu jamiyatning ustavi bilan taqiqlangan bo'lmasa, jamiyatga qabul qilinadigan uchinchi shaxslar hissalarini hisobiga amalga oshirilishi mumkin. Jamiyat ustav fondini jamiyatning mol-mulki hisobiga ko'paytirish to'g'risidagi qaror bunday qaror qabul qilingan yildan oldingi yil uchun jamiyatning buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari asosidagina qabul qilinishi mumkin.

7.7. Jamiyatning ustav fondini kamaytirish ishtirokchilarga tegishli bo'lgan ulushlarning nominal qiymatini kamaytirish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Jamiyat ustav fondini kamaytirish va uning yangi miqdori to'g'risida qaror qabul qilingan vaqtdan boshlab o'ttiz kun mobaynida jamiyatning unga ma'lum bo'lgan barcha kreditorlarini xabardor qilishi, shuningdek qabul qilingan qaror to'g'risida ommaviy axborot vositalarida ma'lumot e'lon qilishi shart.

7.8. Ustav fondini o'zgartirish to'g'risidagi qaror uchinchi shaxslar uchun ustav va ta'sis shartnomasiga tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyingina kuchga kiradi.

VIII. ISHTIROKCHILARNING JAMIYAT ISHTIROKCHILARI SAFIDAN CHIQISHI VA UNING OQIBATLARI

8.1. Jamiyatning har qanday ishtirokchisi jamiyat ishtirokchilari safidan chiqish huquqiga ega. Bunday holatda ishtirokchi ustav fondidagi o'z ulushini qolgan ishtirokchilarga yoxud ularning roziligi bo'yicha uchinchi shaxslarga sotish yoki ularning foydasiga voz kechish huquqiga ega.

8.2. Ishtirokchi ishtirokchilar safidan chiqishida unga o'zi tomonidan ustav fondiga kiritilgan ulushning haqiqiy qiymati natura yoki haqiqiy qiymatiga teng bo'lgan pul ko'rinishida qaytariladi.

8.3. Jamiyat ishtirokchisi o'zgartirilganidan keyin jamiyatning ta'sis hujjatlariga zaruriy o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishi lozim.

8.4. Jamiyatning ta'sis hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar uchinchi shaxslar uchun ular davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin kuchga kiradi.

IX. JAMIYAT ISHTIROKCHISINING JAMIYAT USTAV FONDIDAGI ULUSHINING (ULUSHI BIR QISMINING) JAMIYATNING BOSHQA ISHTIROKCHILARIGA VA UCHINCHI SHAXSLARGA O'TISHI

9.1. Jamiyat ishtirokchilaridan har biri jamiyatning ustav fondidagi o'z ulushini yoki ulushining qismini jamiyatning boshqa ishtirokchilariga va uchinchi shaxslarga sotishga yoki boshqacha shaklda ularning foydasiga voz kechishga haqli.

9.2. Jamiyat ishtirokchisining ulushi to'liq to'langan davrgacha bo'lgan muddatda to'langan qismi bo'yichagina begonalashtirilishi mumkin.

9.3. Jamiyat ustav fondidagi ulushdan (ulushning bir qismidan) boshqa shaxsning foydasiga voz kechish, oddiy yozma shaklda amalga oshirilishi kerak.

X. JAMIYATNING HUJJATLARINI SAQLASH

10.1. Jamiyat quyidagi hujjatlarni saqlashi shart:

— jamiyatning ta'sis hujjatlari, shuningdek jamiyatning ta'sis hujjatlariga kiritilgan hamda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar;

— jamiyat muassislari yig'ilishining jamiyatni tashkil etish va jamiyatning ustav fondiga qo'shiladigan pulsiz hissalarining pul bahosini tasdiqlash to'g'risidagi qarorni, shuningdek jamiyatni tashkil etish bilan bog'liq boshqa qarorlarni o'z ichiga olgan bayonnomasi;

— jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat;

— jamiyatning o'z balansida turgan mol-mulkka bo'lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlar;

— jamiyatning filiallari va vakolatxonalari to'g'risidagi nizomlar;

— jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishlarining, jamiyat kuzatuv kengashi, jamiyatning kollegial ijro etuvchi organi va jamiyatning taftish komissiyasi majlislarining bayonnomalari;

— jamiyat taftish komissiyasining (taftishchisining) va auditorlik tashkilotining xulosalari;

— qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar.

10.2. Yuqorida aytib o'tilgan hujjatlar ijro etuvchi organ joylashgan joyda saqlanadi.

10.3. Agarda amaldagi qonun hujjatlari bilan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lmasa, jamiyat mazkur ustavning 10.1-bandida ko'rsatib o'tilgan hujjatlarni doimiy saqlaydi.

10.4. Jamiyat har qanday ishtirokchining talabi bilan unga axborot, shuningdek ta'sis hujjatlarini unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan taqdim qilishi yoki nusxa berishi shart.

XI. HISOB VA HISOBOT

11.1. Jamiyat o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va o'z mahsuloti va xizmatlariga narxlarini bozor konyukturasidan kelib chiqib belgilaydi.

11.2. Jamiyat mustaqil ravishda buxgalteriya hisobini, statistika va moliyaviy hisobotni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradi.

11.3. Jamiyat mustaqil ravishda jamiyatning tashkiliy tuzilmasini, shtat jadvalini va mehnatga haq to'lashni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq hal qiladi.

11.4. Jamiyat faoliyatiga oid hisobotlarni qonunda belgilangan tartibda davlat organlariga taqdim qiladi.

XII. DAROMADNI TAQSIMLASH VA ZIYONLARNI QOPLASH

12.1. Jamiyat ustav fondining 15% miqdorida zaxira fondi shakllantiradi. Jamiyatning zaxira fondi uning zararlarini qoplash va qonunda nazarda tutilgan hollarda Jamiyatning ustav fondidagi ulushni (ulushning qismini) sotib olish uchun mo'ljallangan.

12.2. Daromad oraliq davr yakunlari bo'yicha har chorakda, yarim yilda bir marta, yiliga bir marta taqsimlanishi mumkin. Daromadni taqsimlash to'g'risidagi qaror ishtirokchilarning tomonidan qabul qilinadi.

XIII. JAMIYATNING BOSHQARUV ORGANLARI

13.1. Jamiyatning boshqaruv organlari bo'lib quyidagilar belgilanadi:

— ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi (ishtirokchi) - oliy boshqaruv organi;

— direktor - jamiyatning ijro etuvchi organi.

13.2. Jamiyatda kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi belgilangan tartibda tashkil etilishi mumkin.

XIV. ISHTIROKCHILARNING UMUMIY YIG'ILISHI

14.1. Jamiyatning oliy boshqaruv organi bo'lib jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi hisoblanadi.

14.2. Jamiyatning har bir ishtirokchisi jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishida jamiyatning ustav fondidagi o'z ulushiga mutanosib ovozlar soniga ega bo'ladi.

14.3. Jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

a) jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilash, shuningdek tijorat tashkilotlarining boshqa birlashmalarida ishtirok etish to'g'risida qaror qabul qilish;

- b) jamiyat ustav fondining miqdorini o'zgartirish;
 - v) ta'sis hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish;
 - g) jamiyatning ijro etuvchi organlarini tuzish va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
 - d) jamiyatning taftish komissiyasini (taftishchisini) saylash va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
 - ye) agar jamiyatning ustavida kuzatuv kengashini tuzish nazarda tutilgan bo'lsa, uni saylash va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
 - j) yillik hisobotlarni va yillik buxgalteriya balanslarini tasdiqlash;
 - z) jamiyatning sof foydasini jamiyat ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilish;
 - i) jamiyat organlarining faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarni tasdiqlash (qabul qilish);
 - k) auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish, auditorlik tashkilotlari hamda ularning xizmatlariga to'lanadigan haqning eng ko'p miqdorini aniqlash;
 - l) boshqa yuridik shaxslarni, vakolatxonalar va filiallarni tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - m) jamiyatni qayta tashkil etish yoki tugatish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - n) tugatuvchini tayinlash va tugatish balanslarini tasdiqlash.
- Jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining a), b), v), z) va m) kichik bandlarida ko'rsatilgan masalalar yuzasidan qarorlari jamiyatning barcha ishtirokchilari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.
- Jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining qolgan qarorlari, jamiyat ishtirokchilari umumiy ovozlar sonining ko'pchilik ovozlari bilan qabul qilinadi.

XV. IJRO ETUVCHI ORGAN

- 15.1. Jamiyatning ijro etuvchi organi bo'lib jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiruvchi direktor hisoblanadi.
- 15.2. Jamiyatning direktori ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi tomonidan saylanadi.
- 15.3. Jamiyat va jamiyatning direktori o'rtasidagi shartnoma, jamiyat nomidan, direktor tayinlangan jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishida raislik qiluvchi yoki jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi tomonidan vakolat berilgan jamiyat ishtirokchisi tomonidan imzolanadi.
- 15.4. Direktor bilan tuzilgan mehnat shartnomasini direktorni saylash to'g'risidagi masala ko'rib chiqilgan jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi raisi (ishtirokchi) imzolaydi.
- 15.5. Direktor lavozimidan ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi qarori bilan lavozimidan ozod qilinishi mumkin.
- 15.6. Jamiyatning direktori:
- jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi va bitimlar tuzadi;
 - jamiyat nomidan vakillik qilish huquqi uchun ishonchnomalar beradi;
 - jamiyat xodimlari bilan mehnat shartnomalari tuzadi va ularni bekor qiladi, xodimlarga nisbatan rag'batlantirish choralari va intizomiy jazolarni qo'llaydi;
 - jamiyatning barcha xodimlari uchun majburiy bo'lgan buyruqlar va farmoyishlar chiqaradi;

qonun hujjatlari va jamiyatning ustavi bilan jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi va jamiyatning kuzatuv kengashi vakolatlari jumlasiga kiritilmagan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

15.7. Direktor ishtirokchilar umumiy yig'ilishiga hisobot beradi va uning oldida jamiyat faoliyatining amalga oshirilishi hamda unga yuklatilgan vazifa va topshiriqlarning bajarilishi uchun javobgardir.

15.8. Direktor jamiyat mol-mulkini tasarruf etishi va ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi qarori bo'yicha yirik bitimlar tuzishi mumkin.

XVI. JAMIYAT FAOLIYATI YUZASIDAN NAZORAT

16.1. Jamiyatda alohida nazorat qiluvchi organing tuzilishi ko'zda tutilmagan.

16.2. Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ustidan nazorat ishtirokchilar yoxud mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi.

XVII. XODIMLAR

17.1. Jamiyat ma'muriyati xodimlar bilan jamoa shartnomasini imzolaydi. Ushbu shartnomaning mazmuni, shu jumladan «Xodimlarning ijtimoiy ta'minoti va ularni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi nizom» O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, mazkur ustav, shuningdek jamiyat faoliyatining xususiyatlari bilan belgilanadi.

XVIII. JAMIYATNING TIJORAT SIRI

18.1. Jamiyatning tijorat siri — uchinchi shaxslarga noma'lumligi sababli tijorat qimmatiga ega bo'lgan, qonuniy asosda erkin foydalanilmaydigan axborot bo'lib, ushbu axborot jamiyat tomonidan uning maxfiyligini muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'radi.

18.2. Tijorat sirining muhofaza qilinishini ta'minlash maqsadida xodim:

ish beruvchi tomonidan o'rnatilgan tijorat siri rejimiga rioya etishi;

ish beruvchining roziligisiz tijorat sirini oshkor etmasligi va undan shaxsiy maqsadlarda foydalanmasligi;

mehnat shartnomasi (kontrakt) bekor qilinganda o'z foydalanishida bo'lgan, tijorat siri aks etgan moddiy jismlarni ish beruvchiga topshirishi yoki uni mazkur jismlardan ish beruvchining nazorati ostida yo'q qilib yoxud o'chirib tashlashi shart.

XIX. JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

19.1. Jamiyatni qayta tashkil etish yoki tugatish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 49 — 55-moddalarida va «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 49 — 55-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

19.2. Jamiyatni qayta tashkil etish ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi qarori bo'yicha qo'shib yuborish, birlashtirish, bo'lish, ajratib chiqarish va qayta tuzish shaklida amalga oshirilishi mumkin.

19.3. Jamiyat belgilangan tartibda ixtiyoriy ravishda ishtirokchilarning Umumiy yig'ilishi qarori bo'yicha tugatilishi mumkin. Jamiyat qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra sudning qaroriga binoan ham tugatilishi mumkin.

19.4. Jamiyatning tugatilishi haqidagi yozuv yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritib qo'yilganidan so'ng jamiyatni tugatish tamomlangan, jamiyatning faoliyati esa tugagan hisoblanadi.

XX. NIZOLARNI HAL QILISH

20.1. Ta'sis shartnomasi va ustav bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar ishtirokchilarning o'zaro kelishuvi yo'li bilan amaldagi qonun hujjatlari, ta'sis shartnomasi va ustavga asosan hal qilinadi.

20.2. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda ular sud orqali, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

XXI. YAKUNIY QOIDALAR

21.1. Mazkur Ustav jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

21.2. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinmagan masalalar, qonunda boshqa hollar nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu Ustavga muvofiq tartibga solinadi.

ISHTIROKCHI:

« Ummatech Invest » MChJ QK
nomidan Direktor Yakubov B.R.

